



UDK: 373:159.9

*Gulnoza XALBAYEVA,*  
*Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali dotsenti*  
*E-mail: xalbayevagulnoza42@gmail.com*

*JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti F.Eshnazarova taqrizi asosida*

## BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI

Аннотация

Ushbu maqolada bolalarni maktabga tayyorlash jarayonini takomillashtirish mexanizmlari, bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida psixologik omillar namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari, ahamiyati va ularning ilmiy tahlili o'z ifodasini topgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim, bola, maktabga tayyorlash, o'qitish ta'limi, innovatsiya, komfort, o'quv faoliyati, mexanizmlar, innovatsion tafakkur.

## МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ К ШКОЛУ

Аннотация

Данная статья посвящена выражению механизмы совершенствования процесса подготовки детей к школе, особенности проявления психологических факторов в процессе подготовки детей к школе, их значение и научный анализ.

**Ключевые слова:** Дошкольное образование, ребенок, подготовка к школе, педагогическое образование, инновации, комфорт, учебная деятельность, механизмы, инновационное мышление.

## MECHANISMS FOR IMPROVING THE PROCESS OF PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL

Annotation

This article reflects the mechanisms for improving the process of preparing children for school, the peculiarities of the manifestation of psychological factors in the process of preparing children for school, their importance and their scientific analysis.

**Key words:** Preschool education, child, school preparation, teaching education, innovation, comfort, educational activities, mechanisms, innovative thinking.

**Kirish.** Jahonda bolalarni maktabga innovatsion tayyorlashga oid bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Bolani ta'limga har tomonlama mukammal tarzda tayyorlash, ta'lim va amaliyot orasidagi bog'liqlikni bartaraf etish yo'lida «Tajriba asosida ta'lim olish» (Experimental learning) g'oyasi ustuvor bo'lib qolmoqda. Mazkur jarayon o'z navbatida «Lifelong learning» - «Umr davomida ta'lim olish» konsepsiyasiga ko'ra, o'quvchilarni innovatsion faoliyatga yo'nalganligini ta'minlashni talab etmoqda. Bu borada «Experiential learning» o'qitish ta'limni maktabgacha bo'lgan davridanoq shakllantirishni tajriba tarzida o'tkazishni taqozo etib, ta'lim oluvchilarni o'quv jarayoniga motivlashtirish yo'li bilan keng jalb etishni nazarda tutadi[1]. Ushbu jarayon har tomonlama tafakkuri boy, intellekti yuqori bolalarni maktabga tayyorlashni talab etmoqda. Buning uchun bolalarni maktabga innovatsion tayyorlashni o'ziga xos psixologik jihatlariga e'tibor berish, bu jarayonni rivojlantirish orqali ularni maktabga tayyorlash dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Yangilanayotgan O'zbekistonda so'nggi yillarda bolalarni maktabga innovatsion tayyorlash asosida ularni psixologik tayyorgarligini takomillashtirish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan etib belgilangan bo'lib, zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi. Taraqqiyot strategiyasining birinchi ustuvor yo'nalishida «Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish» [2] va «Iqtidorli yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni yanada jonlantirish, mamlakatda amalga oshiriluvchi innovatsion g'oyalar, loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiquvchi barkamol avlodni tarbiyalash» konseptual

g'oya negizida ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan davlat siyosati O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish, sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish muhim vazifalar belgilanganligi ularni amalga oshirishda shaxsning individual qiyofasini to'laqonli namoyon etishga xizmat qiluvchi omillarni o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirishga yetarli asos yaratilganidan dalolat beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Respublikamizda bolalar psixologiyasi muammolari bilan shug'ullangan o'zbek olimlaridan G.B.Davletshin, Sh.A.Do'stmuhamedova, S.X.Jalilova, Z.T.Nishonova, O'.Otavaliyeva, B.R.Qodirov, N.S.Safayev B.M.Umarov, E.G'.G'oziyev va ularning shogirdlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida bolalarning shakllanishi hamda ularning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan psixologik xususiyatlari tadqiq etilgan.

Bir qator xorijiy olimlarning ishlarida, bolalarning maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligining rivojlanish muammolari bilan bog'liq ko'plab savollar tadqiq qilingan. Jumladan, katta maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning psixik rivojlanish xususiyatlarini umumnazariv jihatlarini (P.P.Blonskiy, 1997; L.S.Vigotskiy, 1983; V.V.Davidov, 1986; E.Erikson, 1993; J.Piaje, 1969 va boshqalar); bolalarni maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligining mazmudor va tarkibiy jihatlarini (M.R. Bityanova, 1998; A.L.Venger, 1988; N.I. Gutkina, 1996; I.V.Dubrovina, 1991; va boshqalar), katta maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligi shakllanishining tarkibiy amaliy asoslari

(M.Donaldson, 1985; A.N.Leontev, 1975; S.L.Novoselova, 1978; S.L.Rubinshteyn, 1989; va boshqalar); bolalarni rivojlantiruvchi ta'limning gumanistik asoslari (Ye.N. Volkova, 1992; N.F.Vinogradova, 2000; M.Montessori, 1997; K. Rodjers, 1995; va boshqalar).

N.Gutkina bolalarni maktabga tayyorlashda g'ayratli rolni ta'kidlaydi. Muallif o'zboshimchalikga alohida e'tibor beradi, uning kam rivojlanishi maktab ta'limida yuzaga keladigan qiyinchiliklarning asosiy sharti hisoblanadi. Maktabga tayyorlanadigan birinchi sinf o'quvchilari ta'limning bilim va ijtimoiy sabablaridan tashkil topgan ta'lim motivatsiyasiga ega bo'lishlari kerak. O'quv maqsadi, yozuvchining fikriga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolaning ruhiy rivojlanishining eng yuqori cho'qqisiga aylandi, shuning uchun eng keng ma'noda ta'lim olish uchun kerakli va yetarli darajadagi razvedka mavjudligini nazarda tutadi [4]. A.L.Venger nuqtai nazaridan maktabga tayyorgarlik intellektual, motivatsion, hissiy va boshqa yutuqlarning oddiy summasi emas, balki komponentlarning shartli ajratilishi mumkin bo'lgan yaxlit ta'lim sifatida ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan muayyan faoliyatni tartibga solish bilan tavsiflanadi. Bular quyidagilarni o'z ichiga oladi: bolani kattalarning ko'rsatmalariga yo'naltirilganligi va vazifaning holati, muayyan vaziyatni tahlil qilish mexanizmlari va ehtimoliy harakatlar rejasini ishlab chiqish, rejani belgilangan me'yorlarga rioya qilish mexanizmlari, ushbu rag'batni aks ettiruvchi me'yorlar va hissiyotlarga rioya qilishni rag'batlantirish [5]. Shunga qaramay, ta'kidlanganidek, maktab ta'limi uchun psixologik tayyorgarlikni ko'rib chiqishda, 1-jadval

Bolalarni maktabga psixologik tayyorgarlik mezonlaribo'yicha olingan natijalar n=295  
(Kern-Yirasek uslubi bo'yicha)

	Mezonlar	O'g'il bolalar N=147	Foizi	Qiz bolalar N=148	Foizi
1.	Yuqori	34	23,1	41	27,9
2.	O'rtacha yuqori	29	19,8	33	22,2
3.	O'rtacha (me'yor)	31	21,1	42	28,3
4.	O'rtachadan past	28	19,4	18	12,1
5.	Quyi	25	17,6	14	9,5
	Jami:	147	100	148	100

Ushbu metodika bo'yicha (N=147) 147 nafar o'g'il bolalar hamda (N=148) 148 nafar qiz bolalarda olingan natijalarga ko'ra, "yuqori" mezon bo'yicha o'g'il bolalarda eng yuqori ko'rsatkich 23,1% ni tashkil etgan bo'lsa, qiz bolalarda 27,9%ni ko'rsatdi. Demak, bolalarni maktabga tayyorlashdapsixologik bilimlarning yetishmasligi ulardagi individual psixologik xususiyatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin ekanligini ko'rsatmoqda.

Metodikaning oxirgi "quyi" mezoni bo'yicha o'g'il bolalar 17,6%, qiz bolalar esa 9,5% natijaga ega bo'lishdi. Bolalarni maktabga psixologik tayyorlashdao'rtachadan past va quyi darajalarning kuzatilishi bugungi kunda ushbu muammo hali ham o'zining yechimini topmayotganligi va ayni paytda ma'lum bir innovatsion uslublar ishlab chiqish zarurati borligini ko'rsatmoqda.

Tadqiqotda biz bolalarni maktabga psixologik tayyorgarligini takomillashtirish dasturini tuzish vazifasini ham belgilagan edik. Ana shu vazifani amalga oshirish uchun «Bolalarni maktabga tayyorgarligini takomillashtirish» nomli rivojlantiruvchi dastur tuzdik.Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan "Bolalarni maktabga tayyorgarligini 2 – jadval.

Tajriba va nazorat guruhlarida bolalarni maktabga psixologik tayyorgarlik mezonlari shakllanishiningqiyosiy-statistik ko'rsatkichlari

(Kern-Yirasek uslubi bo'yicha)

Omillar	Tajriba guruhi n1=30			Nazorat guruhi n2=30		
	M1	M2	P	M1	2	P

zamonaviy psixologiyani o'rganishda muayyan yondashuvlarga qaramasdan, ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha yagona va aniq fikr yo'q.

Tadqiqot metodologiyasi va natijalar.Tadqiqotning dastlabki bosqichida bolalarni maktabga psixologik tayyorgarligini baholash maqsadida psixologiya olamida mashhur metodikalardan biri Kern-Yirasek metodikasidan foydalandik. Ushbu metodika orqali bolalarni nafaqat maktabga tayyorgarligini balki, ularning psixik rivojlanishini ham ko'rish mumkin. Ushbu metodika butun dunyoda bolalarni maktabga psixologik tayyorgarligini tekshiruvchi asosiy metodikalardan biri deb e'tirof etilishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Avvalo shuni ta'kidlash joizki, metodika talabiga oid shakllantirilgan har bir topshiriq bolalarni maktabga psixologik tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir maktabga ilk bor qadam qo'yayotgan bola psixologik imkoniyatlaridan unumli yetarlicha foydalana olish malakasiga ega bo'lsagina muayyan darajadagi yutuqlarga erishishi mumkin. Maktabga tayyorlashda esa aynan shu narsa talab qilinadi. Masalaning aynan shu tomonini hisobga olib, har bir bolada yuqorida qayd etilgan psixologik xususiyatlarning shakllanganlik darajalari o'rganildi, tahlil qilingan va tegishli xulosalar shakllantirildi.

Biz dastlab Kern-Yirasek metodikasi yordamida bolalarni maktabga psixologik tayyorgarlik mezonlari namoyon bo'lishining jins farqlarini ko'rib chiqdik. Olingan natijalar quyidagi jadvalda aks etgan (1-jadval).

takomillashtirish"ga oid rivojlantiruvchi dasturda 8 ta mashg'ulot, har bir mashg'ulot 7 ta mashqdan iborat bo'lib, maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari bilan 3 oy davomida haftasiga 2-3 martadan 20-30 daqiqadan o'tkazishga mo'ljallangan. Mashg'ulot kichik 10-15 kishilik guruhlarda o'tkazilishi tavsiya qilinadi.

Tadqiqotimizda belgilangan navbatdagi vazifa bolalarni maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligini rivojlantirishgamo'ljallangandasturning samaradorligini tekshirishdan iborat edi. Biz rivojlantiruvchi dasturning samaradorligini tekshirish maqsadida "Bolalarni maktabga tayyorgarligini takomillashtirish" nomli rivojlantiruvchi dasturni eksperimental guruh sinaluvchilarida o'tkazdik, ushbu guruh a'zolarini Kern-Yirasekning bolalarni maktabga psixologik tayyorgarligini aniqlash metodikasi bo'yicha past natija ko'rsatgan 30 nafar respondentlar tashkil etdi. Nazorat guruhini ushbu metodika bo'yicha o'rtacha natija olgan respondentlar tashkil etdi. O'tkazilgan tadqiqot natijalarig ko'ra eksperimental va nazorat guruhlari o'rtasidagi statistik farq quyidagi jadvalda o'z ifodasini topgan.

	Yuqori	9,5	12,8	2,09*	13,1	13,5	0,05**
	O'rtachadan yuqori	10,7	11,4	1,07*	12,6	12,9	0,04
	O'rtacha	11,3	13,6	1,49**	13,7	14,3	1,22*
	O'rtachadan past	12,4	8,1	2,21*	10,8	10,7	0,02
	Quyi	12,6	7,2	2,06	9,4	9,1	0,04

Izoh: \*  $p \leq 0,05$ ; \*\*  $p \leq 0,01$

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, eksperimental guruhda Kern-Yirasek uslubi bo'yicha dastlabki olingan natijalar nazorat guruhiga nisbatan past darajada, masalan, eksperimental guruhda metodikaning "yuqori" mezon bo'yicha natija 9,5ni ko'rsatayotgan bo'lsa, nazorat guruhidagi ushbu ko'rsatkich 13,1ni tashkil qilmoqda. Eksperimental guruhdagi bolalar bilan olib borilgan rivojlantiruvchi treningdan keyin esa natijalarda sezilarli darajadagi o'zgarishlarni, ya'ni tajriba guruhida ushbu ko'rsatkich 12,8ga ko'tarilganligini ( $r=12,8$ ,  $p \leq 0,05$ ) ko'rishimiz mumkin. Tadqiqot davomida olingan natijalardan ko'rishimiz mumkinki metodikaning "o'rtachadan past" mezon bo'yicha ko'rsatkichlar ham sezilarli darajada ijobiy tomonga o'zgarishlarini ushbu metodikaning "quyi" mezon bo'yicha olingan natijalar bu yerda dastlabki ko'rsatkich 12,6ni bergan bo'lsa, treninglardan keying natija 7,2ga pastlaganini ko'rish mumkin.

**Xulosa.** Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o'tkazilgan trening mashg'ulotlaridan so'ng sinalluvchilarda ahamiyatli darajadagi ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, biz o'z tadqiqotimizda olib borgan rivojlantiruvchi trening natijasida bolalarning kognitiv, kommunikativ, individual xususiyatlarini rivojlantirishga va shu bilan birgalikda ularda maktab ta'limiga adaptatsiya hosil qilishga muvaffaq bo'ldik. Shunday qilib, bolalarni maktabga samarali psixologik tayyorlash uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti

mutaxassislari, psixologi va ota-onalar bilan muhokama qilish, uning rivojlanish muvaffaqiyati uchun asosiy shart-sharoitlar shakllantirilishi kerak. Chunki qachonki bolaning psixik rivojlanishi uchun sharoit yaratilsa, u maktab hayotiga, o'quv faoliyatiga motivatsiyasi paydo bo'ladi. Olingan natijalardan tadqiqot davomida olib borilgan psixokorreksion dasturlar samaradorligini baholash mezon birdan kattaligi va maktabga psixologik tayyorgarlikni umumiy holda baholash mezon noldan kattaligini ko'rish mumkin.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishi natijalari bo'yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi.

- ota-onalar va maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarini bolalarni maktabga psixologik tayyorlashda ularning psixologik xususiyatlarini rivojlantirish bo'yicha innovatsion axborotlar bazasi bilan ta'minlash.

- bolalarda o'quv motivatsiyasini rivojlantirish bo'yicha aniq vazifalarni hal qilish hamda ota-onalarga yosh inqirozlari va uning o'quv faoliyatiga ta'siri masalalarini o'rgatish.

- bolalarni maktabga psixologik tayyorlashga mo'ljallangan dasturlar asosida ijtimoiy treninglar tashkil etib, bolalar psixologiyasida uchraydigan psixologik to'siqlarni va xavotirlanish bilan bog'liq muammolarni optimal hal qilish uchun doimiy ravishda korreksion tadbirlarini olib borilishi lozim.

#### ADABIYOTLAR

1. Action Learning –How does it work in practice? MIT Sloan Management. Retrieved 2016-03-16 Archived2016-03-08 at theWayback Machine.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. 2022 yil 28 yanvar.
3. Алферов А.Д. Психология развития школьник. Изд-во: Феникс, 2001.-384с.
4. Гуткина Н.И. Психологическая подготовка к школе. - М. НПО "Образование", 1996. – стр 67
5. Венгер, А.Л., Поливанова, К.Н. Особенности принятия учебных заданий детьми шести лет // Вопросы психологии: науч.жур.- М.: 2003.- №4.46-48 с.
6. Нижегородцева Н. Развитие познавательных процессов и личности в старшем дошкольном возрасте: уч. пособие. Ярославль, 1996. 35-36 с.
7. Выготский Л.С. Вопросы детской психология // СПб., - М., 1997. 5 с.
8. Xalbayeva G.A. Zamonaviy psixologiyada bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarligining psixologik muammolari // Ilmiy axborotnoma. Samarqand. – 2020. - №2. B. 151-158
9. Xalbayeva G.A. Bolalarni maktabga tayyorlashning innovatsion-psixologik mexanizmlari // Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 55 b.